

ERKIN VA TURG‘UN BIRIKMALI – SARLAVHALAR STILISTIKASI

Rajabov Feruz
Turdiyeva Munisa
Berdimurodova Dilnoza

QarMII akademik litseyi ona tili va adabiyot fani o‘qituvchilari.

Annotatsiya: *Bu maqolada so‘z birikmasi, gap va maqol shakldagi sarlavhalar uslubiyati ilmiy manbalarga tayangan holda tahlil qilishga harakat qilingan.*

Kalit so‘zlar: *sarlavha, rasmiy uslub, aloqa formalari, funksional uslub, neytral nutq.*

Hikoya sarlavhalarining tarbiyaviy ahamiyati kuchli, ular kitobxonning his-tuyg‘usiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, so‘z birikmasi va gap – sarlavhalarning imkoniyatlari bu sohada ancha katta. Ayrim hikoya sarlavhalari kitobxon kayfiyatini ko‘tarishga xizmat qiladi. Masalan, A.Qahhorning “Kampirlar sim qoqdi”, “Mayiz yemagan xotin” sarlavhali hikoyasi komediya asosiga qurilgan bo‘lsa-da, kulgu tagida insonlar bilan sodir bo‘ladigan salbiy holatlar ochib berilgan. Sarlavha matnda takrorlangan va hikoya ichida bir ibora vazifasini bajargan¹. “Kampirlar sim qoqdi” sarlavhali hikoyasi o‘sha davr muhitini ochib bergan. Sarlavha kitobxonni o‘ylashga va hikoyani o‘qishga undaydi. Hikoyani o‘qib, gap nima haqdaligini tushunish mumkin².

“Adabiyot muallimi” sarlavhali hikoyasida esa tanqidiy ruh birinchi o‘ringa chiqadi. Ushbu hikoyada nim kulgu, kinoya kuchli, ammo tarbiyaviy ahamiyati beqiyos³. “Ko‘r ko‘zning ochilishi” sarlavhali hikoyasida ushbu sarlavha matnda takrorlanmagan, ammo mazmunan matnga mos. Ushbu hikoyani o‘qish barobarida mantiqiy fikrlash orqali sarlavhadan butunlay boshqa ma’no anglaymiz. Ushbu hikoya o‘sha davr fuqarolar urushi voqyealari tasvirlangan eng yaxshi hikoyalardan biri edi⁴.

Abdulla Qahhorning “Ming bir jon” hikoyasida tengsiz iroda egasi bo‘lgan Mastura xarakteri yaratilgan. Hikoya birinchi shaxs tomonidan bayon qilinadi. “Birinchi shaxs tomonidan bayon qilingan hikoya hayotiy materialni, birinchi navbatda, subyektiv tarzda berish prinsipiga, o‘z-o‘zini chuqur analiz qilishga, faqat faktlarni tasvirlash bilan band bo‘lmay, ularga munosabat bildirishga ham tayanadi”⁵.

“Ming bir jon” hikoyasiga asos qilib olingan voqyea hayotda kam uchraydi. Yosh bir ayol og‘ir kasal, eri o‘n yildan beri boshida parvona, ayol cheksiz chidam, matonat bilan kasallikni yengadi, hayotga qaytadi.

¹ Qarang: Qahhor A. Tanlangan asarlar. - Toshkent, 2007, -B.31-37.

² Qarang: Qahhor A. Povest va hikoyalar. – Toshkent, 1965, -B.43-47.

³ Qarang: Qahhor A. Povest va hikoyalar. – Toshkent, 1965, -B.57-59.

⁴ Qarang: Qahhor A. Povest va hikoyalar. - Toshkent, 1965, -B.29-34.

⁵ Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. – Toshkent, 1967, -B.57.

Soʻz birikmalarining sarlavha sifatida ishlatilishi oʻziga xos kengroq mazmuni ifodalashga qaratilgan. Shukur Xolmirzayev hikoyalarda ham soʻz birikmasi sarlavha sifatida qoʻllanilgan⁶. Ularning matn bilan uygʻunligi, maʼnoni nisbatan kengroq aks ettirishi hikoyalarning oʻqimishlilikini maʼlum darajada taʼminlagan. Misollar: *Yozilmagan soʻz boshiga ilova*. Matndagi uygʻunlikni koʻrish mumkin: Xoʻsh, *yoziilmagan soʻzboshiga ilovani* shu yerda tugatsam ham boʻladi. Umid qilish mumkinki, soʻzboshilar ham, soʻngsoʻzlar ham hikoyalar jamuljam holida chiqqach yozilaverar. *Notanish odam*. Matn: “Isina bering? Olovni minnat qilganimi!” Pidakni kiyib oʻrnimdan turdim. Kamardan chiqarkanman, *notanish odamni* koʻrdim. *Olis yulduzlar ostida*. Matn: Bu yerdan Boysun chiroqlari yulduzday miltillab koʻrinadi. Sarlavha mazmuniga mos qisman tasvir matnda uchraydi.

Yovvoyi gul. Matn: - Bu gulni ekamiz, aya,-dedi./ - Koʻpayib ketadi. Bu yovvoyi gul, kiyik oʻt madaniy boʻlib ketadi.

Oy yorugʻida. Matn: Samar oyga qaradi, botib borar, kunchiqar tobara oqarar edi. Matnda sarlavha mazmuni qisman aks etgan.

Adib hikoyalarda milliylik mazmuni kuchli ifodalanganligini sarlavhalar orqali ham koʻrish mumkin. Misol: “*Oʻzbekning soddasi*”. Kitobxon hikoyani oʻqishga chorlovchi til birligi sarlavhadan taʼsirlanib, matn bilan tanishgach, boy maʼnaviy ozuqa olganligiga amin boʻladi: Men – endi oʻzgarib ketgan, savodim ham rostakamiga chiqib, “Alpomish”ni ham oʻzim oʻqiydigan, hamda otamning mardlik va arz qilish toʻgʻrisidagi aqidalariga allaqachon qoʻshilmay qolgan esam-da, bu keksayib qolgan otam - “*Oʻzbekning soddasi*”ga havasim kelib ketdi. *Yangi zot*. Matn: Ishning qaltis tomoni ham bor edi: *yangi zot* yaralmay, yo otasi, yo onasiga tortib ketishi, yoki uch-toʻrt yildan keyin aynishi mumkin edi... Quyidagi sarlavhalar matnda uchramaydi, ularning mazmuni matnga singdirilgan: “*Sirli milisioner*”, “*Ot egasi*”, “*Uchinchi hamroh*”.

Umuman, badiiy asar sarlavhasi (hikoya, qissa, roman va hokazo) matn bilan uygʻun holda biri ikkinchisini toʻldirishi, oʻquvchini jalb qila olishi va, albatta, ekspressiv-stilistik boʻyoqdor boʻlishi kerak. A.Qahhor va Gʻ.Gʻulom ijodida biz xuddi mana shunday joziba va mahoratni koʻramiz, ularning hikoyalari sarlavhalari bilan uygʻun holda oʻquvchi etiboridan chetda qolmaydi.

Gʻafur Gʻulom hikoyalarda sarlavha sifatida qoʻllanilgan soʻz birikmalari mazmunli va ixchamliligi, mushohadaga undashi bilan eʼtiborni tortadi. Misollar: *Koʻngilsizning qiligi* - Sarvar, baribir qochib qutila olmasan. Oʻzing yaxshi bilasanku, men xotinimga koʻngilsizman. Men seni oʻzimga xotin qilib olaman, - dedi. *Puch umidlar* Matnda sarlavha matn mazmuniga singdirilgan. *Hulkar tolei* Hikoyada sarlavha aynan takrorlanmagan, lekin Hulkar qiz birikmasi yetti bor takrorlangan. *Elatiyada bir ov*. Hikoyada sarlavha aynan takrorlanmagan, mazmuni matnga

⁶ Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Hikoyalar. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2003. – 448 b.

singdirilgan. *Eng so'ng tajriba bilan boy bo'lish* Sarlavha mazmuni matnga singdirilgan.

Adib ijodida qo'llangan so'z birikmasi – sarlavhalar emotsional-ekspressiv bo'yoqdorligi va keng mazmuni ifodalashi bilan kitobxon e'tiborini tortadi. Bunday sarlavha matn bilan tanishishga bevosita undashi bilan boshqa xil sarlavhalardan ajralib turadi. Misollar: *Hiylai shar'iy* - Bo'tam bu mushkilingizning iloji hiylai shar'iydir, garchand to'rtgacha xdotin olishga ijozat bor, lekin umringiz bor uchun, eng muvofiq'i hiylai shar'iydir, - dedi. *Cho'tir xotinning tolei* Uning kolxo'zi har qachon oldinda... Cho'tir xotin- Sharifa opa rayonda nom chiqargan udarnik xotin! *To'rt hangama* Sarlavha matnda takrorlanmagan, mazmuni matnga singdirilgan. *"Hojiboboyi Gulfurush"* -Nima kasbdasiz? -Shoirman. - Balli...Men ham Hojiboboyi Gulfurush yemasman. Bu gullar o'z bog'imning mahsulotit. *Eri bilan bas boylashgan xotin* Shu qilganiga u bilan bas boylashaman, mayli men, mening zvenom-hammamiz uning ham normasini o'z ustimizga olamiz. *Mening o'g'rigina bolam* - O'g'rigina bolam, hoy o'g'rigina bolam, hoynahoy biror tiriklikning kuyida tomga chiqqan ko'rinasan, axir, kasbing nozik, tumov-pumovingni yozib chiqsang bo'lmaydimi, - debdilar.

G'afur G'ulom hikoyalarida qo'llangan sarlavhalar orasida sodda va ixcham, mazmunli gaplar ham alohida o'rinni egallaydi. Ular ortiqcha izohga muhtoj emas. Misollar: *Chorasi ko'rildi* Shundayki, rayon sho'rosidan tortib, qishloq sho'rosigacha, rayon solih idorasidan tortib ayri solih ro'yxatchilarigacha choralari ko'rildi (69). *"Haji qabul bo'ldi"* To'g'ridan ham, Badalmat so'fining "haji" oxiri umrida, Makkada emas, Odessa portida "qabul bo'lgan" edi. *Afandi o'lmaydigan bo'ldi* Ana shu bo'ldi-yu, Afandi o'lmaydigan bo'ldi, u bizning hayotiy olamimizda bizning hamma ishlarimizga aralashib, kuldirib, xushnud qilib yuribdi. *Mamag'voy tushundi* Sarlavha matnda takrorlanmagan, mazmuni matnga singdirilgan.

Abdulla Qahhor hikoyalarining sarlavhalari qisqaligi va mazmunliligi bilan e'tiborni tortadi. Misollar: *Boshsiz odam* Hikoyada sarlavha takrorlanmagan, mazmuni matnga singdirilgan. *Ko'k konvert* Matnda sarlavha takrorlanmagan, mazmuni matnga singdirilgan. *Mayiz yemagan xotin* - Sen gapirma! Senga kim qo'yibdi gapirishni! Usta Mavlonning o'g'lidan bir hovuch mayiz olganingni o'z ko'zim bilan ko'rganman!...Hamma kulib yubordi. Tomdan kimdir qichqirdi: - Ha, bu kishining xotini mayiz yemagan! *Adabiyot muallimi* Hikoyada sarlavha takrorlanmagan, mazmuni matnga singdirilgan. *Ming bir jon* - Bu xotinning joni bitta emas, ming bitta! - dedi, - hozir tugab qolgan shamday lipillab yonayotgan joni basharti so'nggan taqdirda ham, qolgan mingtasini yoqib keyin so'nadi. *Nurli cho'qqilar* - Ta'na qilma! - dedi labi pirpir. - Men nurli cho'qqiga yetolmagan bo'lsam...sigir minib sen yetib borasan!...(AQ.TA,137). *Dumli odamlar* - Dumli odamlarni ko'rganmisiz? - dedi. Mehmon gapning sarhonasini yangilamoqchi degan o'yda kulib qo'ya qoldim. Shunda ko'nglimga bir gap keldi: bu odam o'sha Ansoriyni dumli odamlar toifasidan deb o'ylamasmikin(AQ.TA, 128).

Gap sarlavhalar Shukur Xolmirzayev hikoyalarida sanoqli ishlatilgan⁷. Ular ham nihoyatda ixcham va sodda gaplardan iborat. Misollar: *Nimadir yo‘q bo‘ldi*. Matn: Buni anglab, birdan ajralishdi va bir-biriga qarashdi: tushundilar-ki, oralaridan nimadir...nimadir yo‘q bo‘lgan!(TA1, 30-34-b.).

Olma yemadim. Matn: Iyagimni qashimoqchiday bo‘lib, *olmani sekin og‘zimga eltdim...* Qars...Shum bola kuzatib kelayotgan ekan./ - A-ha! - deb yuborsa bo‘ladimi./ Bolalar kulib yuborishdi. Tuf, deb tashladim og‘zimdagini. Qo‘limda qolgan qismini ham yerga urdim (TA1, 34-36-b.). *Zov ostida adashuv*. Matn: Lekin kuz kunlarining birida o‘z ixtiyorim bilan emas, sharoitning taqozasi bilan, beixtiyor zovostiga kirib qoldim. Naq bir kecha-kunduz u yerda qolib ketdim (TA1, 157-175-b.).

Shukur Xolmirzayev hikoyalarida ishlatilgan sarlavhalarning dastlabki tahlili shuni ko‘rsatadiki, yozuvchi asosan sarlavha sifatida mazmunli va ixcham til birligi – so‘zni tanlab, uning emotsional-ekspressiv ma‘nosi, stilistik imkoniyatlaridan mahorat bilan foydalangan, so‘z birikmasi sarlavha sifatida oz uchrasa-da, ular sifatlovchi-sifatlanmish va qaratqich-qaralmish kabi stilistik ma‘nosi kuchli birikmalardan tanlangan. Gap - sarlavhalar juda oz, ammo ular ham nihoyatda ixcham, sodda gaplardan tanlangan va matn bilan uyg‘unlashtirilgan. Hikoya janriga xos o‘ziga xoslik qisqa syujetlilik, soddalik, keng mazmunlilik bo‘lsa, asar va uning sarlavhasiga qo‘yiladigan asosiy talab ham qisqalik, ixchamlikdir. Shukur Xolmirzayev sarlavha talablarini hisobga olgan holda, matn mazmuniga mos, emosional-ekspressivligi kuchli, ixcham til birliklarini tanlagan. Yozuvchi ijodiga xos soddalik va hayotiylik sarlavhada ham munosib aks etgan.

Badiiy asarlarda ham maqollardan turli uslubiy maqsadlarda foydalaniladi. Ularning ishlatilishida o‘ziga xoslik mavjud, ya‘ni maqol turli shakllarda(to‘liq yoki qisqartirilgan holda) qo‘llansa-da, ular matnda takrorlanmaydi, mazmuni matndagi jumalarga singdiriladi. Masalan, *Yaxshiga yondash, yomondan qoch maqoli* Nosir Afzalning «Topdimu yo‘qotmadim» (Toshkent, 2010, 7-bet) asarida «Yaxshiga yondashib...» shaklida ishlatilgan va uning mazmuni yozuvchining ustozlari haqidagi fikrlariga singdirilgan.

Yoki: Saidvafo Boboyevning «Armonli dunyo» (Toshkent, 2007, 45-bet) asarida ishlatilgan «*Pul bo‘lsa changalda sho‘rva»mi?* sarlavhasi qo‘llanilgan. Ushbu maqol matnda uchramaydi, lekin uning mazmuni quyidagi jumalarning ta‘sirchanligini ta‘minlagan: *Baxtni pulga sotib olish mumkinmi? Pulga baxtsizlik sotib olish mumkinmi? Ilm bo‘lsa pul ham, obro‘ ham bo‘ladi.*

Badiiy asarlarda maqollar sarlavha sifatida kam uchraydi. Ularning epigraf sifatida va matnda qo‘llanilgan holatlari alohida tadqiqot olib borish uchun arzigulik material bo‘la oladi.

⁷ Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar: 3 jildlik. 1-jild: Hikoyalar. – Toshkent: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2003. – 448 b.

Gʻafur Gʻulom hikoyalari sarlavhalarida maqol va iboralardan ham foydalanilgan. Masalan, *Men nima deymanu, Qoʻbizim nima deydi*⁸, *Mard maydonga chiqsin, Oʻynashmagin arbob bilan...., Oʻpka qilmangiz, Boshi osmonda yurardi, Kaltagap ikki doʻst, Oyoq olishiga qaraydi.*

Gʻafur Gʻulom hikoyalari koʻproq yumor asosiga qurilgan boʻlsa-da, uning tagida chuqur mazmun, tanqid yotadi. Tanqidiy mazmundagi hikoyalarda maqol va iboralar sarlavha sifatida ishlatilgan. Ijodkorning hikoyalari sarlavhalarining oʻzi kitobxonga juda koʻp maʼlumot beradi. Hikoya-larni oʻqish hych bir kitobxonni zeriktirmaydi.

Shukur Xolmirzayev hikoyasida ishlatilgan quyidagi iborani yagona sarlavhalardan biri deb hisoblash mumkin: *Bir koʻrgan tanish.* Ushbu hikoyada asar qahramonlari Zokir Oʻrinovich, maktab direktori va Toshboyjon haqida hikoya qilinadi. Buni hikoyani oʻqib bilish mumkin(TA1, 18-26-b.). *Ikki koʻrgan bilish* sarlavhasining mazmuni matnga singdirilgan. U *bir koʻrgan tanish, ikki koʻrgan bilish* iborasining bir qismi boʻlib, uning qolgan qismi boshqa hikoya uchun sarlavha vazifasini oʻtagan.

Umuman, hikoya sarlavhalari janr talabidan kelib chiqib, juda ixcham va mazmunli, emotsional-ekspressiv imkoniyatlari keng til birliklaridan tanlanishi lozimligi tadqiqotlarda bayon qilingan. Dastlabki kuzatishlarimiz ushbu talablar asosida hikoya sarlavhalari tanlanganligini koʻrsatmoqda. Ayniqsa, taniqli yozuvchilar, mahoratli hikoyanavislar Abdulla Qahhor, Gʻafur Gʻulom va Shukur Xolmirzayev hikoyalari sarlavhalari mavzu mazmunini birmuncha oʻzida ifodalashi, ixchamligi, stilistik boʻyogʻi va emotsional-ekspressiv imkoniyatlari yarq etib koʻrinishi bilan alohida eʼtiborni tortadi. Sarlavha tanlashda til birlik-laridan soʻz, soʻz birikmasi va sodda gapning imkoniyatlari, mazmunni ifodalashi, kitobxonni oʻziga tortishi hisobga olingan. Badiiy asar sarlavhalarining stilistik imkoniyatlarini kelgusida oʻrganish va baholashda Abdulla Qahhor, Gʻafur Gʻulom va Shukur Xolmirzayev hikoyalarining sarlavhalari boy material boʻlishi bilan birga mahorat maktabi vazifasini ham oʻtaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Qahhor A. Tanlangan asarlar. - Toshkent, 2007.
2. Qahhor A. Povest va hikoyalar. – Toshkent, 1965.
3. Sultonova M. Abdulla Qahhor uslubi. – Toshkent, 1967.
4. Xolmirzayev Sh. Tanlangan asarlar. 3 jildlik. 1-jild. Hikoyalar. – T.: “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2003. – 448 b.
5. Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. – Toshkent, 1986, 354-b.

⁸ Qarang: Gʻafur Gʻulom. Mukammal asarlar toʻplami. – Toshkent, 1986, 354-b. Misollar ushbu asardan olinganda bundan keyin manba quyidagicha qisqartish bilan berildi: MAT, 354.